

Moliya bozorida fond birjasining faoliyati

Qahramonova Xusnora

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada siz, Molya bozori va fond birjasi moliya bozori instrumentlari moliya bozori modellari

KALIT SO'ZLAR: pul, aksiya, obligatsiya, kredit, qimmatli qog'ozlar, valyutalar, sug'urta polislari, pensiya jamg'armalari, qimmatbaho metallar, hosilaviy moliyaviy instrumentlar.

Moliya bozori – moliyaviy instrumentlardan foydalanish asosida moliyaviy vositachilar orqali vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini qayta taqsimlash yuz beradigan bozordir. Moliya bozorisiz yirik kapitalni jalb qilish va yirik loyihalarga investitsiyalash murakkab masaladir. Sotuvchi va xaridorlar sonining ko‘pligi natijasida shakllangan raqobat mexanizmi orqali bozorda moliyaviy aktivga nisbatan yagona bozor bahosi shakllanadi va axborot shaffofligiga erishiladi. Bugungi yuqori texnologik imkoniyatlar sharoitida maxsus vositachilik tuzilmalaridagi ko‘p sonli operatsiyalar hisobiga pul va boshqa aktivlar muomalasi xarajatlari pasaytirilishi, risklar sug‘urtalanishi, sotiladigan aktivlar turlari kengayishi yuz bermoqda. Moliya bozorining rolini chuqurroq anglash uchun uning funksiyalarini bilish talab etiladi. 1997 yil iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati Robert Merton moliya bozorining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi kapitalni vaqt, tarmoqlararo va mamlakatlararo qayta taqsimlash kapital jamlash va korxonalariga ulush kiritish to‘lov-hisob-kitob risklarni boshqarish axborot axborotlar assimetriyasi bilan bog‘liq muammolarning oldini olish.

Moliya bozori modeli – iqtisodiyotni moliyalashtirishning turli usullari va turli moliyaviy vositachilar rolining ahamiyatiga bog‘liq holda bozorni tashkil etish tipidir. Iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud bo‘lib,

ular bank kreditlari yordamida moliyalashtirish hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishdir. Bank kreditlari yordamida moliyalashtirish kontinental Yevropada moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda moliyaviy resurs jalb qilish maqsadida bankka murojaat qilinadi. Bank kompaniya moliyaviy holatini tekshiradi, taqdim etgan loyihasi va uning samaradorligini ijobiy baholaganda boshqa shartlarning ham bajarilishini inobatga olgan holda kredit ajratadi. Tegishli talablar bajarilmagan yoki taqdim etilgan loyihalar ijobiy baholanmagan holatlarda, shuningdek loyihalar yuqori riskli deb topilganda banklar moliyalashtirish bo'yicha arizaga rad javobini berishi mumkin. Bundan tashqari faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha bir necha kreditlarni moliyalashtirish murakkab jarayon ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Bank stavkalari yuqoriligi, alohida banktomonidan mustaqil ravishda yirik summada kredit berish imkoniyati pastligi bunday amaliyotning kamchiliklari hisoblanadi. Banklar tomonidan kreditlashning kamchiliklari o'z navbatida kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori orqali mablag'lar jalb qilishni rivojlantirishga zaruratni yuzaga keltiradi. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish Amerika qo'shma shtatlarida va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda kompaniyalar qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqaradi va kapital jalb qilish uchun ularni bozorda sotadi. Qimmatli qog'ozlar bozoridan mablag'lar jalb qilish kapital jalb qiluvchi uchun qulay bo'lsada, loyihalarni moliyalashtirish uchun qimmatli qog'ozlardan foydalanish har doim ham qulay hisoblanmaydi. Chunki bank kreditini jalb qilish uchun faqatgina bank ishonchini qozonish yetarli bo'lsa, qimmatli qog'ozlar orqali kapital jalb qilish ko'plab investorlar ishonchini qozonishni talab qiladi. Bunda investorlarni loyihaaning samaradorligi va eng asosiysi emitentning investorni muntazam ravishda daromad bilan ta'minlashiga ishonch olishi lozim bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozoridan mablag'lar jalb qilish quyidagilar bilan bevosita bog'liq: - emitent investorlar uchun ochiq va nufuzli bo'lishi lozim, uning loyihalari, moliyaviy hisobotlari va ko'rsatkichlari tanishish uchun qulay bo'lishi lozim; -

jalb qilinadigan kapital kreditga nisbatan arzonga tushishi lozim. Buning uchun odatda qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali katta miqdorda kapital jalb qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlarda iqtisodiyot va moliya sohasi rivojiga ko'ra jahonda moliya bozorining bank va qimmatli qog'ozlar bozoriga asoslangan ikkita asosiy modeli shakllanganligi tilga olinadi. Bu modellar odatda insayderlik va autsayderlik modellari, nemis va ingliz modellari sifatida ham tilga olinadi. Moliyaviy sxemalar va munosabatlardagi yaqqol farqlarning yuzaga kelganligidan kelib chiqqan holda moliya bozorining islom modeli ham keyingi paytlarda alohida qayd etilmoqda. Bank modeli – bank tomonidan moliyalashtirishga asoslangan tizim bo'lib, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham moliya bozori banklar tomonidan moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsada, ma'lum bir farqli jihatlar mavjudligini qayd etish lozim. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar: - tijorat banklari moliyaviy vositachilar (broker, diler, anderrayter) funksiyalarini bajaradi; - kreditlash mexanizmlari orqali kompaniyalarni uzoq muddatli moliyalashtirish ustunlik qiladi; - mulkchilikning yuqori ulushi guruhlar qo'lida jamlanadi. Bunda davlat va yirik korporativ tuzilmalar ulushi yuqori hisoblanadi; - qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha joylashtirish yopiq xarakterga ega; - aksiyadorlik kapitali tarkibi nazorat paketi va vertikal ishtirok etishga asoslanadi; - bir foizgacha kapitalga egalik qiluvchi mayda aksiyadorlar kamchilikni tashkil qiladi, shuningdek kollektiv investitsiyalash institutlari faoliyati mayda investorlar faoliyatida ahamiyat kasb etadi.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar oldisotdi qilinadigan birja; pul kapitali harakatiga xizmat ko'rsatadigan moliya bozorining dastaklaridan biri. Bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletleri, tijorat veksellari), valyuta oldisotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

Fond birjasining asosiy vazifalari: bo'sh turgan pul va qimmatli qog'ozlarni sotishni tashkil etish orqali jamg'arilgan pul kapitalini safarbar etish va to'plash; xususiy xo'jalik sub'yektlari va davlat investitsiyalarini ularning qimmatli qog'ozlari xaridini tashkil etish yo'li bilan moliyalashtirish; qimmatli qog'ozlarning yuqori darajadagi likvidligini, ya'ni qimmatli qog'oz egalari uchun yo'qotishlarsiz tezda pul mablag'lariga aylanishini ta'minlash. Huquqiy maqomiga ko'ra, jahon amaliyotida doimiy davlat nazoratida faoliyat ko'rsatadigan yalpi huquqiy, aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi hususiy va davlat kapitali ishtirokidagi aralash fond birjasi turlari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8-aprelda qabul qilingan "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan tashkil etilgan. , 1994 yil 745-son, uning faoliyati respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish siyosati bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda: "Toshkent" RFB faoliyatining predmeti va maqsadi oldindan belgilangan joyda va ma'lum bir vaqtda belgilangan qoidalar asosida ommaviy va ochiq birja savdolarini tashkil etish va o'tkazish yo'li bilan birja tovarlari bilan savdo qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarning erkin muomalasi uchun zarur shart-sharoitlar va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni talab va taklifning haqiqiy nisbati asosida qimmatli qog'ozlar bahosini shakllantirish yo'li bilan oshkor etish.

Foydalanilgan adabyotlar

1. Akbaralievich, P. E. A. (2023). Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan. EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya_bozori

3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/81/->

[Moliya%20bozori%20va%20birja%20ishi.PDF](#)

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fond_bozori

5. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018- yil 3-iyuldagi PQ-3832 sonli.